



PLAY AS A LEADING ACTIVITY IN PRESCHOOL.

Sobirova is the daughter of Nigora Turdali
Fergana State University
Pedagogy - Faculty of Psychology Talabasi

Annotation:

The development of the child's mental cognitive processes during play, the effectiveness of the will, emotions and interests, the formation of the child's personality. From a pedagogical point of view, play not only forms the moral and volitional characteristics of the child, but also inspires him to respect the work of adults and to take an interest in what is happening in the environment.

Keywords: preschool age, play activities, subject, subject, rule games.

“Menga do'st bo'lishni istasangiz maktabgacha ta'limga e'tibor bering” O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ushbu gaplarini o'qir ekanmiz maktabgacha ta'limga qay darajada e'tibor qaratilyotganligining guvohi bo'lamiz albatta. Shu jihatdan ushbu maqolada maktabgacha ta'lim muassasasidagi kelajak bunyodkorlari bo'lmish bolalarning ta'lim-tarbiyasida o'yin faoliyatining ahamiyati va bu jarayonda nimalarga e'tibor qaratish kerakligi haqida so'z yuritimiz.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati o'yindir. Bog'cha yoshidagi bolalarning o'yin faoliyati masalasida asrlar davomida juda ko'p olimlarning diqqatini o'ziga jalb qilib kelmoqda.

Bog'cha yoshidagi bolalar o'zining o'yin faoliyatlarida ildam qadamlar bilan olg'a qadam qarab borayotgan sermazzun hayotimizning hamma tomonlarini aks ettirishga intiladilar. Bolalarning o'yinlari orqali ularda ijtimoiy foydali, ya'ni yuksak insoniy xislatlarni tarbiyalash mumkin. Bundan tashqari, agarda biz bolalarning o'yin faoliyatlarini tashqaridan kuzatsak, o'yin jarayonida ularning barcha shaxsiy xislatlari(kimning nimaga ko'proq qiziqishi, qobiliyati, irodasi,temperamenti) yaqqol namoyon bo'lishini ko'ramiz. Shuning uchun bolalarning o'yin faoliyatlari ularni individual ravishda o'rganish uchun juda qulay vositadir. Kichik maktabgacha yoshidagi bolalar odatda, o'zlari yolg'iz o'ynaydilar. Predmetli va konstruktorli o'yinlar orqali bu yoshdagi bolalar o'zlarining idrok, xotira, tasavvur, tafakkur hamda harakat layoqatlarini rivojlantiradilar. Syujetli rolli o'yinlarda bolalar asosan o'zlari har kuni ko'rayotgan va kuzatayotgan kattalarning xatti-harakatlarini aks ettiradilar. O'yin faoliyati bolalarning insoniyatning ijtimoiy tajribasini egallashning faol shakli bo'lgan ta'lim faoliyatiga tayyorlaydi. Ko'pchilik psixologlar hamda pedagoglar o'yinning psixologik masalalari bilan bevosita shug'ullanib, o'yinning bolaning psixik kamol topishidagi ahamiyatiga alohida to'xtalib o'tganlar. Ma'lumki o'yin bola uchun voqelikni aks ettirishdir. Bu voqelik bolani qurshab turgan voqelikdan ancha qiziqarlidir. O'yinning qiziqarliligi uni anglab yetishning osonligidadir. O'yin faoliyati bolalarni insoniyatning ijtimoiy tajribasini egallashning faol shakli bo'lgan tahlil faoliyatiga tayyorlaydi. Odam birdaniga ijtimoiy tajribani o'zlashtirishga kirisha olmaydi. Ijtimoiy tajribalarni faol egallash uchun odam avvalo yetarli darajada nutqni egallagan bo'lishi, ma'lum malakalar, uquvlar va elementar tushunchalarga ega bo'lishi kerak bo'ladi. Bularga bola o'yin faoliyati orqali erishadi.



Academica Globe: Inderscience Research

Ma'lumki, bolalarning asosiy vaqti o'yin bilan o'tadi. O'yin maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlanishining muhim vositasi, ularning asosiy faoliyati bo'lib hisoblanadi. O'yin jarayonida bola shaxsi faoliyati sub'ekti sifatida shakllana boshlaydi. O'yin uzoq vaqtlardan beri mashhur olimlar, pedagog psixologlar, faylasuflar, sotsiologlar, etnograflar va madaniyat arboblari diqqatini qaratib kelgan dolzarb mavzudagi muammolardan biridir.

Maktabgacha yoshdagi bolaning yetakchi faoliyati o'yindir. Bu yoshdagi bolalarning o'yinlarini uchga bo'lish mumkin:

- 1) Predmetli o'yinlar (15-20 minut o'ynaladi)
- 2) Suyjetli-rolli o'yinlar (30-60 minut o'ynaladi)
- 3) Qoidali o'yinlar (1 soatdan 2 kungacha davom etishi mumkin)

Bola atrofdagi narsalar dunyosini bilish jarayonida ular bilan bevosita amaliy munosabatda bo'lishga intiladi. Bu o'rinda shu narsa xarakterliki, bola bilishga tashnaligidan atrofdagi o'zining xaddi sig'adigan narsalari bilangina emas, balki kattalar uchun mansub bo'lgan, o'zining kuchi ham yetmaydigan, xaddi sig'maydigan narsalar bilan ham amaliy munosabatda bo'lishga intiladi. Masalan: bola avtomashinani yoki tramvayni o'zi haydagisi, haqiqiy otga minib yurgisi, uchuvchi bo'lib samalyotda uchgisi va rostakam militsioner bo'lgisi keladi. Tabiiyki, bola o'zidagi bunday extiyojlarning birontasini ham haqiqiy yo'l bilan qondira olmaydi. Bu o'rinda savol tug'iladi. Bolalarning tobora ortib borayotgan turli ehtiyojlari bilan ularning tor imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshilik qanday yo'l bilan hal qilinadi? Bu qarama-qarshilik faqat birgina faoliyat orqali, ya'ni, bolalarning o'yin faoliyati orqaligina hal qilinishi mumkin: birinchidan, bolalarning o'yin faoliyati qandaydir moddiy mashg'ulot ishlab chiqishga qaratilgan faoliyat emas. Shuning uchun bolalarni o'yinga undovchi sabab (motiv) kelib chiqadigan natija emas, balki shu o'yin jarayonidagi turli harakatlarning mazmuniga bog'liqdir; Ikkinchidan, bolalar o'yin jarayonida o'z ixtiyorlaridagi narsalarni, o'zlarini qiziqtirgan, ammo kattalargagina mansub bo'lgan narsalarga aylantirib, xohlaganlaricha erkin faoliyatda bo'ladilar. Bolalarning o'yin faoliyatlari ularning jismoniy va psixik jihatdan garmonik ravishda rivojlanishi uchun birdan-bir vositadir.

O'yin bolalar hayotida shunday ko'p qirrali faoliyatki, unda kattalarga mansub bo'lgan mehnat ham, turli narsalar haqida tasavvur qilish, xomxayol surish, dam olish, xushchaqchaqlik jarayonlarining barchasi o'yin faoliyatida aniq bo'ladi. Mehnat va o'quv topshiriqlari tufayli bajarilgan mahsuldor faoliyat turlarida maktabgacha yoshdagi bola shaxsining rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar yaratadi: natijaga erishish, xulq atvorni boshqarish va rejalashtirish, o'z-o'zini baholash, yangi motivlar, mehnatsevarlik kabilarni shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Z.T.Nishonova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti. Toshkent – 2018.
2. S.Mirjalilova, M.Rasuleva va boshqalar. "Bolajon" tayanch dasturi. "Ma'rifat-madadkor" T.2000 y.
3. Z.T.Nishonova "Bolalar psixologiyasi" o'quv qo'llanma.- T-2006 y.
4. P.Yusupova "Maktabgacha tarbiya pedagogikasi" "Tarbiyachi" T-1993 y.